

2022-YIL – INSON QADRINI ULUG‘LASH VA FAOL MAHALLA YILI



MA'NAVIYAT KO'ZGUSI

MA'NAVIYAT – ENG
TA'SIRCHAN VA QUDRATLI
QUROLIMIZ

Ma'naviy-ma'rifiy gazeta

● 5-6 (205-206)-son

● 2022-yil, 18-mart

● www.manaviyat-kuzgusi.uz

● newspaper@inbox.uz

Navro'z xalqimizning ma'naviy qiyofasini va pokiza his tuyg'ularini, o'lmas ruhi va madaniyatini o'zida yorqin namoyon etadigan eng ko'hna, eng sevimli, chinakam milliy ayyomimizdir.

Shavkat MIRZIYOYEV

NAVRO'ZDA MEHR-OQIBAT, QADR-QIMMAT JILOSI

O'lkamizga ko'klamning tashrif buyurishi bilan tabiat uyg'onib butun olam yashillikka burkandi. Ona zamin uzra bahoriy nasim esa boshladi. Nozik novdalarga gul bitdi, qiyg'os gullagan bog'lar kapalak va bolarilarga oshyon bo'ldi.



Quyoshning qaynoq taftini sog'ingan maysalar ko'zni quvatib, ko'kka bo'y cho'za boshladi. Butun borliqda uyg'onish, yangilanish, yasharish manzaralari. Ushbu ko'rkam va ko'm-ko'k bahoriy manzaralar ozod va obod Vatanimizga boqiy bayram, qut-baraka, to'kinlik hamda mehr-u oqibat ramzi — Navro'zi olam kelganidan darak beradi. Navro'z yildan yilga yangilanib, sayqallanib borayotgan ulug' va qadimiy bayramlardan biridir. Ushbu ayyom insonning samimiy, toza niyatlarini, tuyg'ularini yuzaga chiqaradigan, sevinchlari, orzu-istaklari, umidlari do'stlari, yaqinlari bilan baham ko'radigan shodiyona kun hisoblanadi. Bu kunda umumxalq sayllari tashkil etilib, turmush tarzimizdagi an'analar, o'lmas qadriyatlar, urf-odatlar bo'y-bastini namoyon etadi. Obodlik va ozodalik ufurib turgan zaminda bayram bolalarining sho'x-shodon qiyqirig'i, kuragi yer ko'rmagan polvonlarning bellashuvi, askiyachilarning kulgulari, dorbozlarning chiqishlari, sochlariga tolbargak taqqan qizlarning aytishuvlari bilan yanada fayzli va shukuhli. Navro'zning mehr-oqibat deb atalishi ham behuda emas. Bu kunda qarovsiz qolganlar, yetim-yesirlar, beva-bechoralar holidan xabar olinadi. Gina-kuduratlar unutilib kishilar yaxshilikka intiladi. Milliy merosimiz sanalgan Navro'z bayrami shukhi viloyat Ma'naviyat va



ma'rifat markazida bu yil ham ko'tarinki ruhda tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-fevraldagi "Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi 134-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida bo'limimiz tomonidan "Assalom, Navro'z — yangilanish, mehr-oqibat va qadr-qimmat ayyomi!" degan bosh g'oyani mujassam etgan "Ko'p millatli, bir maqsadli, yuksak ma'naviyatli xalqimiz" mavzusida milliy bayram sayli bo'lib o'tdi. Unda viloyatimizning barcha tuman, shaharlaridan tashrif buyurgan mehmonlar, folklor-etnografik va badiiy havaskorlik jamoalari ishtirok etdi. Yig'ilganlar har bir hududga xos bo'lgan ko'klam taomlari hamda hunarmandlar, madaniyat uylari, ta'lim muassasalari va mahalla-



larning ijod namunalaridan bahramand bo'lishdi.

Tadbir davomida Navoiy shahridagi "Durdona" folklor ansamblining marosim qo'shiqlari hamda milliy termalar, laparlari, Navbahor tumanidagi



"Xushan-Zamon" folklor etnografik ansambli jamoalarining "Qadim an'analarini kuylab" nomli, Qiziltepa tumanidagi "Vang'oz" xalq folklor etnografik ansamblining "Zarmetan qatig'i" kuy-qo'shiqlari, barchaga o'zgacha kayfiyat va xushnudlik baxsh etdi.

Xatirchi tumanidagi milliy baxshichilik jamoalari tomonidan "Kuyla, do'mbiram" nomli konsert dasturi namoyish etildi. Qolaversa, G'ozg'on shahri hunarmandlarining "Milliy an'analarimiz — millatimiz ramzi" mavzusidagi hunarmandchilik ishlari ko'rgazmasi tashkil etildi. Uchquduq

ning an'anaviyligi ta'minlandi. Ayniqsa, bu kunda xalqimizga, millatimizga xos yuksak insoniylik, mehr-muruvvat, qadr-qimmat, saxovatpeshalik, bag'rikenglik, samimiy tuyg'ular yana bir karra yuksaldi. Tadbirida "Ma'naviy saxovat" shiori ostida viloyat Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi tomonidan osh hamda bahor milliy taomi sumalak tayyorlanib, ishtirokchilarga taqdim etildi. To'kinsochin dasturxon atrofida barchaga birdek hurmat-e'tibor ko'rsatildi. Milliy taomlar tortilib, halim-u sumalaklar atrofida milliy kuy-qo'shiqlar aytili. Albatta, mazkur ayyomda ana shunday o'zbekona qadriyatlarimiz yuksak darajada ko'z-ko'z etiladi.

Tariximizni o'rganish, milliy urf-odat, an'analarimizni yoshlar o'rtasida targ'ib qilish, milliy bayramlarimiz ahamiyatini ular ongiga singdirishda mazkur sayllarning ahamiyati beqiyos. Garchand, ma'naviy yuksaklikka, avvalo, ajdodlarimizdan bizga bezavol yetib kelayotgan o'lmas merosni asrab-avaylash va qadrlash bilan erishiladi.

Tadbir so'ngida faol ishtirok etgan tuman, shahar Ma'naviyat va ma'rifat bo'linmasi rahbarlariga diplom hamda esdalik sovg'alar taqdim etildi.

A. MUQIMOV,
Navoiy viloyati
Ma'naviyat va ma'rifat
bo'limi rahbari.



ZUKKO BOLAJONLAR

Uchquduq tumanidagi 14-"Ertak" nomli DMTTda "Moychechak" katta guruhi ishtirokida "Zakovat" intellektual o'yini bo'lib o'tdi. Birinchi guruh "Donolar", ikkinchi guruh "Zukkolar" deb nomlandi. Har bir guruhga 7 tadan savollar berildi. Tarbiyalanuvchilarga mashg'ulotlar davomida qo'llanilgan mantiqiy, o'ylab, fikrlab javob beriladigan savollar berildi. Hakamlar tomonidan tarbiyalanuvchilar munosib baholandi. "Donolar" guruhi sardori Farhodov Mehrojbek javoblari e'tirofga sazovor bo'ldi. "Donolar" guruhi 59 ball, "Zukkolar" guruhi 56 ball bilan baholandi. Faol qatnashgan bolalar diplomlar bilan taqdirlandilar.

Uchquduq tuman Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi.

XIZMATLAR SOHASIDA FAOL HUDUDLAR

2022-yilning yanvar oyida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 626 mlrd. 800 mln. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 115,7 % ni ko'rsatmoqda. Bozor xizmatlarining eng katta hajmi quyidagi uchta soha savdo xizmatlari (201 mlrd. 900 mln.), moliyaviy xizmatlar (144,0 mlrd.) transport xizmatlari (99 mlrd, 200 mln.) hissasiga to'g'ri keladi.

Qolaversa, viloyatda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi Navoiy shahrida 205 mlrd. 400 mln. so'm, Karmana tumanida 90 mlrd. 300 mln. so'm, Zarafshon shahrida 87 mlrd. 700 mln. so'mni tashkil etgan.

Akbar FAYZULLAYEV
Navoiy viloyati statistika
boshqarmasi bo'lim boshlig'i.

QURILISH KORXONALARI YILLAR KESIMIDA

Qurilish sohasi viloyatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan muhim sohalaridan biri hisoblanib, 2022-yil 1-mart holatiga ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1 716 tani tashkil etdi. 2017-yilning mos davri bilan solishtirilganda 2 barabarga oshganligini ko'rishimiz mumkin.



Qurilish korxonalari yillar kesimidagi holati:

1 mart 2017-yilda — 808 ta, 2018-yilda — 865 ta, 2019-yilda — 1 133 ta, 2020-yilda — 1 468 ta, 2021-yilda — 1 595 ta, 2022-yilda — 1716 taga yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan eng ko'p qurilish korxonalarini 482 tasi Navoiy shahri, 254 tasi Qiziltepa va 287 tasi Karmana tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

N. XATAMOVA
bo'lim boshlig'i.

QURILISH ISHLARI TAHLILI

Navoiy viloyatida 2022-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari tahliliga nazar salsak, viloyatda 1 716 ta bu sohadagi korxona va tashkilotlar tomonidan jami 516,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil etdi.

Viloyatda bajarilgan qurilish ishlari hajmida 34,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari yirik korxonalar hisobiga, 382,1 mlrd. so'mi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 19,3 foizni tashkil etib, 99,4 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

N.O'NAROV,
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi mutaxassisi.

AUTSORSING TIZIMINING QULAYLIKLARI

Kun tartibidagi ovqatlanishni to'g'ri tashkil etib sifatli mahsulotlar iste'mol qilish, albatta, salomatlikning muhim garovidir. Ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning kunlik ovqatlanishi ana shu me'yorlarga mos bo'lishi lozim. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan autsorsing xizmatining afzalliklari" mavzusidagi matbuot anjumani bu boradagi ishlarning mukammal yo'lga qo'yilganligidan dalolat berdi.

Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi viloyat bo'limi va Maktabgacha ta'lim boshqarmasi hamkorligida o'tkazilgan matbuot anjumanida OAV vakillari, blogerlar, soha mutaxassislari hamda tadbirkorlar ishtirok etishdi. Anjumanda, dastavval MTB viloyat teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi viloyat bo'limi bilan joriy yil davomida qo'shma loyihalar tashkil etish yuzasidan hamkorlik memorandumini imzolandi. Boshqarma boshlig'i O'. Tillayevning ma'ruzasida aytilishicha, maktabgacha ta'lim tashkilotlari har jihatdan sifatli va ishonchli xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari bilan shartnomalar tuzishgan. Shunga ko'ra bugungi kunda viloyatimizda 1140 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lib, ularning 210 tasi davlat bog'chalari, 71 ta davlat-xususiy sherikchilik asosidagi hamda 855 tasi oilaviy bog'chalar sanaladi. Avval 6-MTT da sinov tariqasida boshlangan autsorsing usuli bugungi kunda o'zining ijobiy natijasini ko'rsatgan bo'lib, 2022-yilning 1-yanvaridan Navoiy va Zarafshon shaharlari va Karmana, Uchquduq, Qiziltepa, Nurota tumanlarida jami 60 ta MTT autsorsing usulidagi ovqatlanirish tizimiga o'tkazilganligi ta'kidlandi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, sog'lom ovqatlanirish masalalarini yanada yaxshilash, oshxonalarida sifatli taomlar tayyorlanishiga erishishda mazkur tizimning ahamiyati beqiyos, — deydi boshqarma boshlig'i O'tkir Tillayev. — Avvallari bir oylik oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, sifatini asrash har bir muassasaga muammolar tug'dirardi.



Bugungi kunda esa ta'minotchi korxona yetkazib berilishi zarur bo'lgan mahsulotlarni maxsus muzlatkich omborxonalarda saqlaydi va talabnomaga qarab har besh kunda mahsulot yetkazadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida bu beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

— Bizning muassasamizda ham autsorsing tizimi yo'lga qo'yilgan, — deydi Navoiy shahar 9-MTT mudirasi Gulzoda Rajabova. — Tadbirkorlik subyektlari tomonidan ish boshlanishi bilan barcha oshxona jihozlari va idish-ovoqlari ham yangisiga alishtirildi. Mazkur tizim tarbiyalanuvchilarning belgilangan sanitariya qoidalariga muvofiq, sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Qolaversa, tizimning biz uchun eng samarali jihati endilikda bolalar ta'lim-tarbiyasiga ko'proq vaqt ajratishga yordam bermoqda. Umumiy tipdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir nafar bolani bir kunlik ovqatlanirish amaldagi sanitariya qoidalariga va me'yorlarini to'liq ta'minlashda 24 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari bo'lishi belgilangan. Anjuman davomida ushbu mahsulotlarning ko'rgazmasi ham tashkil etildi.

T. HAKIMOVA

2023 YILDA - RO'YXATGA OLISH

2023-yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazishda respondentlar so'rovi quyidagi muddatlarda tashkil etiladi:

1 — 5-noyabr kunlari — internet jahon axborot tarmog'i orqali aholini ro'yxatga olish (5 kun);

6 — 10-noyabr kunlari — internet jahon axborot tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tgan respondentlar va ularning uy manzillari ro'yxatini shakllantirish (5 kun);

11 — 22-noyabr kunlari — aholini ro'yxatga olish varag'i shakllari asosida uyma-uy yurib aholini ro'yxatga olish (12 kun, fuqarolik-huquqiy tushariga shartnomaga asosan);

23 — 25-noyabr kunlari — har bir hisob uchastkasidagi uy-joy manzillarining 10 foizini tanlanma ravishda nazorat kuzatuv asosida o'rganish (3 kun).

Agar respondent yashab turgan xonadonida (joyida) ro'yxatdan o'tishni istamasa, ro'yxatga oluvchi unga instruktorlik uchastkasiga borib ro'yxatdan o'tishni taklif etadi va uchastka manzilini beradi.

Instruktorlik uchastkalari 2023-yil 1 — 22-noyabr kunlari respublikaning barcha hududlarida faoliyat yuritadi.

Ro'yxatga olish uchastkasi xodimlari, instruktorlar va ro'yxatga oluvchilar belgilangan tartibda maxsus guvohnoma, sumka, ro'yxatga olish varag'i shakllari va kanselyariya buyumlari bilan ta'minlanadi.

Ro'yxatga olish davrida instruktorlar (supervayzerlar) ro'yxatga oluvchilar tomonidan so'rov o'tkazilgan respondentlar sonini kunlik nazorat



qilib boradi.

Aholini ro'yxatga olishni o'tkazishda ro'yxatga oluvchi xodimlar:

— so'rov o'tkazishdan oldin o'zini tanishtirishi, respondentga o'z guvohnomasini ko'rsatishi, tashrif maqsadini tushuntirishi, shuningdek, ro'yxatga olishda ishtirok etishning muhimligi, respondentlarning shaxsga doir ma'lumotlarining maxfiyligi ta'minlanishi va so'rov taxminan qancha vaqt davom etishi to'g'risida ma'lumot berishi;

— shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish jara-yonida aholini ro'yxatga olish dasturida belgilangan savollar ro'yxatiga rioya etishi, ularning mazmuni buzilishiga yo'l qo'ymasligi;

— ro'yxatga olish varag'ida keltirilgan ketma-ketlik bo'yicha savollar berishi, ro'yxatga olish varag'ida mavjud bo'lmagan savollarni bermasligi;

— aholini ro'yxatga olish varag'i shakllarini to'ldirish bo'yicha yo'riqnomada keltirilgan tushuntirishlardan tashqari respondentga qulaylik yaratish maqsadida qo'shimcha ravishda tushuntirishlar berishi;

— xushmuomala bo'lishi, boshqa shaxslarning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilmasligi yoki ularning hayoti, sog'ligi va mulkiga xavf solmasligi, shuningdek, statistika organlari obro'siga putur yetkazadigan harakatlardan saqlanishi;

— shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi va ularning mazmunini oshkor qilmasligi;

— o'z vakolatlariga muvofiq ishlarni to'liq, sifatli va belgilangan muddatlarda bajarishi lozim.

Konimex tumani statistika bo'limi.

Ma'rifat sohibi bo'lmak uchun ahvoli olamdan xabardor bo'lmak kerak.

Abdulla Avloniy



YURT FAROVONLIGI YO'LIDA

Bojxona organlari tomonidan mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, bojxona to'lovlarini undirish, tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash hamda "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Navoiy viloyati bojxona boshqarmasi tomonidan 2022 yilning yanvar oyi davomida 94,1 mlrd. so'mlik bojxona to'lovlari undirilib, davlat byudjetiga o'tkazilishiga erishildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash maqsadida bojxona to'lovlaridan salkam 158,0 mlrd. so'm imtiyozlar berildi. Imtiyoz qo'llanilgan asosiy tovarlar tarkibini texnologik asbob-uskunalar, transport vositalari va uning qismlari, metall va metall buyumlar, kimyo sanoati mahsulotlari tashkil etdi. Shuningdek, boshqarma

tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga 37,2 mlrd. so'mlik bojxona to'lovlarini kuchiktirib to'lash imkoniyati berildi.

Bu esa tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va xorijga eksport qilishni munosib rag'batlantirishga xizmat qilib kelmoqda. Masalan, 2022-yil yanvarda 18,6 mln. AQSH dollaridan ortiq bo'lgan tovarlar xorijiy mamlakatlar bozorlariga yo'naltirildi. Tovarlarni 20 ga yaqin davlatlarga eksport qilingan bo'lib, asosiy hamkor davlatlar Tojikiston, Rossiya, Turkiya va Qozog'iston davlatlaridir. Eksport qilingan asosiy tovarlar: kalava ip, metall va ulardan tayyorlangan buyumlar, to'qimachilik mahsulotlari, mineral o'g'itlardir.

Bojxona postlarida jami 1 166 ta bojxona yuk deklaratsiyalari rasmiylashtirilib, 392 ta bojxona ko'rigi jarayonlari



amalga oshirildi.

Bojxona yuk deklaratsiyalarini Xavfni boshqarish axborot tizimi bo'yicha yo'laklar kesimida tahlil qilsak, deklaratsiyalarning 529 tasi yoki 45 foizi "yashil yo'lak", 322 tasi yoki 28 foizi "sariq yo'lak", 315 tasi yoki 27 foizi "qizil yo'lak" tartibida rasmiylashtirildi. Sodda qilib aytganda, boshqarmada tadbirkorlarning 72 % yuklari soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirildi. Boshqarmada bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishini oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yish, kontrabandaga qarshi kurashish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2022-yilning yanvar oyi davomida jami 52 ta huquqbuzarlik holatlari aniqlanib, daliliy ashyo sifatida 260 mln so'mlik tovar-moddiy boyliklar ushlab qolindi. Bojxona to'lovlari

bilan bog'liq jami 8 ta holatda 5 mlrd. 436 mln. 488 ming qo'shimcha bojxona to'lovlari hisoblangan. Boshqarma tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar bilan hamkorlikda giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash yo'nalishida 2 ta holatda 6,38 gr. giyohvandlik vositalarining

noqonuniy aylanmasiga chek qo'yildi. Bundan tashqari, tovar-moddiy boyliklarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish yo'nalishida 8,4 mln. so'mlik 580 quti tamaki mahsulotlari, 1,4 mln. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlarining bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tilishi hamda miqdori 15 820 kg, qiymati 50,3 mln so'mlik rangli metall parchalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq huquqbuzarlik holatlari aniqlandi. Albatta, bu tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarning tinimsiz sa'y-harakatlari natijasidir. Vatan taraqqiyoti yo'lida o'z hissasini qo'shib kelayotgan bojxona xizmatchilari doimo yurt farovonligi uchun kamarbastadirlar.

Akbar RIZAQULOV,
Navoiy viloyati bojxona boshqarmasi xodimi.

IMKONIYATDAN,
HUNARIDAN MAMNUN

Yurtimizda azaldan oila muqaddas qo'rg'on sifatida e'zozlangan. Zero, inson qalbida ahillik, mehr-oqibat tuyg'ulari, ilm-ma'rifatga oshno bo'lish ko'nikmasi, avvalo, shu aziz dargohda shakllana boshlaydi. Bosh qomusimizda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, deb belgilanganligi zahirida ham ana shu milliy qadriyatlarimiz mazmuni mujassam. Oilani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni har tomonlama jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida barqarorligini ta'minlash har bir mamlakatning doimiy e'tiborida bo'ladigan ustuvor yo'nalishlardan biri sanaladi.

Bugun hukumatimiz tomonidan tadbirkor ayollarga keng imkoniyatlar yaratilib berilmoqda.

Yurtboshimizning bugungi kunda qo'yayotgan asosiy talablaridan biri — xotin-qizlar uchun ish o'rinlari yaratish, yashash sharoitlarini yanada yaxshilash va bu orqali ularning farovon hayotini ta'minlashdir. Ma'lumki, oila ham jamiyatning kichik bir bo'lagi bo'lib, unda ayolning o'rni beqiyosdir. Ayol oilaning farishtasi, saranjom-sarishta uy bekasi. U jismonan erkaklarga nisbatan zaif bo'lsa ham, oilaning yukini ko'tara olishga qodir shaxs. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda ayollar tadbirkorligi yetakchi o'rinni egallamoqda.

Bu turdagi dasturlar doirasida tadbirkorlik faoliyatini boshlash ko'p holatlarda oilaviy tadbirkorlik sifatida o'z aksini topadi.

Navoiy viloyat prokurori tashabbusi hamda Navoiy shahar, Qiziltepa tuman Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari, viloyat Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi hamkorligida "Jamiyatning tayanchi bo'lgan oilalarni yarashtirish muhim

vazifa" shiori ostida prokurorlar sektorida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Navoiy shahar "Kimyogar" MFY hududidagi viloyat Xotin-qizlar tadbirkorlik markazida ajrim yoqasidagi oilalar muhokamasi hamda viloyat Xotin-qizlar tadbirkorlik markazida psixologik trening o'tkazildi.

Bundan tashqari Qiziltepa tuman prokuror sektoridagi 3 yildan buyon o'zining imkoniyat va hunaridan rizq topayotgan tadbirkor ayollar: Qiziltepa tumanida 15 nafardan ortiq uyda vaqtincha ishsiz, kam ta'minlangan, "Ayollar daf-tari"da turuvchi xotin-qizlarni ish bilan ta'minlab kelayotgan Ildiyeva Gulasalning noldan tadbirkorligini boshlab, bugungi kunda tumandagi ishsiz, "Ayollar daf-tari"da turuvchi, ijtimoiy hi-moyaga muhtoj jami 25 nafar xotin-qizlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratgan Sevarova Nargiza-ni faoliyati o'rganildi, muammo va takliflari ko'rib chiqildi.

Dilnavoz KARAYEVA,
Navoiy viloyat Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi treneri.

PREZIDENT MAKTABIDA
PRESS-TUR

2021-yilda Buxoro, Farg'ona, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Andijon, Guliston, Termiz kabi bir nechta hududlarda hamda viloyatimizda Prezident maktabi faoliyatini boshlagan edi. Shahrimiz markazida qad rostlagan, o'z bag'riga ko'plab ilmiy va iqtidorli yoshlarni qamrab olgan Prezident maktabi shart-sharoitlari, sifatli ta'lim tizimi jarayonlari barcha uchun qiziq. Ayniqsa, ommaga u yerdagi imkoniyatlarni batafsil yoritishda jurnalistlarning kengroq tushunchaga ega bo'lishlari muhimdir. Shu nuqtai nazardan OAV vakillari ishtirokida Prezident maktabi binosida Press-tur tashkil etildi.

Dastavval, maskanning ijrochi direktori Dilyara Tuxfatullina maktab faoliyati haqida umumiy ma'lumot berdi.

gazetasi muhim yangiliklardan ekanligi e'tirof etildi. OAV vakillari biologiya, kimyo, matematika, xorijiy tillar xonalari,



Ta'kidlanishicha, o'tgan yilda ta'lim dargohiga kirishni orzu qilgan o'quvchilar ingliz tili, matematika va mantiqiy savollar-dan imtihon topshirishgan. Mingdan ortiq o'quvchilar ichi-dan 144 nafariga ya'ni (5-10 sinf oralig'idagi) mazkur ta'lim dargohida o'qishga muvaffaq bo'lishgan. Ta'lim dargohida 29 nafar o'qituvchi, 12 nafar tarbiyachi o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi uchun mas'uldirlar.

faollar zali, sport zallari, suzish havzasi, oshxona sharoitlari hamda o'quvchilarning dam olish xonalarini ko'zdan kechirishdi. U yerda yosh avlodning tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishlari uchun munosib sharoitlar yo'lga qo'yilgan. Albatta, barcha o'rindarlardan qulay shart-sharoitlar o'quvchilarning puxta ilm olish-lariga qaratilgan.



— Maktabimizda ta'lim jarayonlari ilg'or texnologiyalar aso-sida o'qitish va tarbiyalash bo'yicha yaxlit tizim yo'lga qo'yil-gan, — deydi Dilyara Tuxfatul-lina. — Darslar nazariya va amaliyot bilan uyg'un holda olib boriladi. Bu yerda asosiy fan degan tushuncha mavjud emas. O'quvchilarga barcha fanlar mukammal tarzda tu-shuntiriladi. Ular bilimlarini qay darajada o'zlashtirganliklarini har chorakda o'tkaziladigan im-tihon natijalari orqali ko'rsati-shadi. Shuningdek, Prezident maktabining afzallik tomonlari, o'quvchilar oldidagi qat'iy ta'lim talablari, u yerdagi o'qituvchilar mahorati hamda darslarning qanday tashkil etilganligi ha-qida batafsil ma'lumot berildi.

Press-tur doirasida ishtirok-chilar maktab xonalari, to'garak jarayonlari va o'quvchilar bilan suhbatlashish imkoniga ham ega bo'lishdi. Jurnalistlar ayni vaqtda 2300 kitob fondiga ega kutubxona ingliz tili adabiyot-lari, ijtimoiy-siyosiy kitoblar va ilmiy adabiyotlar bilan boyitil-ganiga guvoh bo'lishdi. Yaqin kunlarda chop etila boshlangan "NeV seneration" nomli maktab

O'quv binosida ertalab 8:00 dan 16:00 qadar darslar o'tiladi. Kunning ikkinchi yarmida esa o'quvchilar turli to'garaklarga jalb etiladi. Press-tur vaqtida ana shunday to'garaklarda faol qatnashayotgan o'g'il-qizlar bi-lan suhbat olib borildi.

— Maktabimizda har bir fan-ga alohida e'tibor qaratiladi, — deydi maskan o'quvchisi Humo-yun Jabborov. — O'zlashtirish qiyin bo'lgan fanlarimiz ustida alohida shug'ullanishimiz uchun bu yerda qulayliklar yetarli. Biz bunga muntazam o'z ustimizda ishlab, ko'proq ilm olib, yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissamiz-ni qo'shish bilan javob qaytari-shimiz kerak xolos.

Maskanda o'quvchilar innovat-sion o'yalar va ishlarni rivojlantirish, kasb-hunarga yo-naltirish, yetakchilik, notiqlik mahoratlarini oshirish, mantiqiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va olgan bilimlarini amaliyotda tat-biq qila olish ko'nikmalarini shakl-lantirmoqdalar. Qat'iy talab va beqiyos imkoniyatlarga ega Prezident maktabi ma'nan yetuk va barkamol avlodlarni shakllan-tirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

T. HAKIMOVA

Haqiqat oldi-da bo'yin egish tavbadir, o'zgasi g'ovg'adir.

Abdulla Qodiriy



● Boshlang'ich kasaba uyushmasi faoliyatidan

KO'NGILLARNI TOG'DEK KO'TARIB...

Kasaba uyushmalari tashkilotlarining aholi ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularning turmush darajasini oshirish, kambag'allikni qisqartirish borasida amalga oshirayotgan xayrli ishlaridan barchamiz xabardormiz.

Shuningdek, bevosita oilalar bilan muloqot asosida ularning mavjud muammolarini aniqlash, oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, xodimlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ayniqsa, boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti a'zosi sifatida qator yillar mehnat qilib, bugungi kunda keksalik gashtini surayotgan yoki nogironligi mavjud insonlar holidan xabar olish ham boshlang'ich kasaba uyushmalari oldida turgan muhim vazifalar sirasidandir.

Shu ma'noda Navoiy shahridagi 5-Ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktabi boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti tomonidan nafaqadagi va nogironligi mavjud bo'lgan sobiq kasaba uyushmasi a'zolari holidan



xabar olindi.

— Keyingi vaqtda bir oz sog'ligim yomonlashib, ko'chaga kam chiqadigan bo'lib qolgandim, — deydi nafaqaga chiqqan sobiq matematika fani o'qituvchisi Mariya Turdimova, — Maktabimiz direktori SH.Tasheva hamda maktab boshlang'ich kasaba uyush-

masi raisi boshchiligidagi bir guruh hamkasblarimning xonadonimizga kirib kelishi men uchun qo'shaloq bayram bo'ldi.

Ko'nglim tog'dek ko'tarilib, sog'ligim ham yaxshi tomonga o'zgara boshladi. Bemorning tuzalishi uchun avvalo uning ruhiyatini ko'tarish kerakligini o'z hayotim misolida yaqqol guvoh bo'ldim.

Darhaqiqat, shu kuni 10 nafardan ortiq nafaqadagi ustozlar bu kabi xayrli ishlardan, mehr-oqibatlik va odamiylik tuyg'ularidan bahramand bo'lishdi.

Dilbar SHODIYEVA,
5-IDUM boshlang'ich kasaba uyushmasi raisi.

SAN'AT YOSHLARNI ILHOMLANTIRADI

Joriy yil 28-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tgandi.

Yig'ilishda maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida sport, madaniyat va san'at to'garaklarini ham faollashtirish zarurligi ta'kidlangan.

Shuningdek, har bir maktabda baxshichilik, maqom, estrada, teatr, rassomchilik yo'nalishlarida to'garaklar va badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etilishi belgilangan, maktabni bitirgan o'quvchi kamida bitta kasb bilan birga bitta milliy cholg'u asbobini chalishni bilishi shartligi ko'rsatib o'tilgandi.

Musika asbobida bir musiqani maromida ijro etish oson ish emas. Buning uchun usta o'qituvchi va tirishqoqlikda o'tadigan yillar kerak. Demak, hozirgi kunda zamonaviy gajetlarga berilayotgan o'quvchi-yoshlar Prezidentimiz ta'kidlagan tashabbuslar amalga oshishi ortidan ortiqcha illatlardan yiroqlashib ko'p imkoniyatlar ega bo'ladi.

Navoiy shahridagi 8-IATCHO'ITMda aynan madaniyat, san'at yo'nalishlarida o'quvchilarning erishayotgan yutuqlari boshqa tengdoshlarini ham sohaga qiziqishiga turtki bo'lmoqda. Bu yo'lda ular maktabda faoliyat olib borayotgan turli yo'nalishlardagi to'garaklarga qatnashib o'z maqsadlariga erishayotir.

Jumladan, "San'at g'unchalari" tanlovining shahar bosqichida maktabning "Dutorchi qizlar" ansambli 1-o'rinni egalladi. "Biz ushbu tanlovning viloyat bosqichida ham birinchilikni qo'lga kiritamiz", — deydi musika fani o'qituvchisi Oydin Saidova.

Bu ishonchning sababi shuki, jamoa tarkibi mahoratli qizlardan iboratligidadir. Jamoaning lideri Gulfayz

● Iqtidorli yoshlar



Tursunova haqida so'zlab bermoqchimiz. Gulfayz 2017-yil buvisi Marhabo opa bilan ilk bor musika maktabiga kirib borganligini eslaydi. Hozir esa uni mohir sozandaga aylantirgan maktabning bitiruvchisi ekanligiga ishonmaydi. Bilasizmi, yosh qizning dutordan tashqari qonun, qashqar va afg'on rubobi, chang, pianino kabi murakkab asboblarni chalishiga ishingingiz kelmaydi. Qolaversa, u dutorda "Chertmak", "Lola raqsi", "Tabassum", "Sharqona navo", "Dutor navosi", "Sadoi sharq", "Darmavzui sharq", "Qo'shtor" kabi o'zbek bastakorlari tomonidan yaratilgan asarlarni nota talablari asosida ijro etishga erisha olgan.

Endi uning yutuqlariga to'xtalsak. Poyoniga yetgan yilning so'nggi oyida "Kamalak yulduzlari — 2021" Respublika bolalar ijodiyoti festivali "B" yo'nalishida munosib ishtirok etib laureat bo'lganligi iqtidorining yuqori ko'rsatkichidir. Albatta, ungacha u 2021-yil mayda Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan

"Magiya talantov" xalqaro onlayn tanlovida 1-o'rin olganini faxr bilan eslaydi.

Darvoqe, "Kamalak yulduzlari — 2021" festivalida Gulfayzdan tashqari Baxtiyorov Iqbol doira chalib 2-o'rinni, Kenjaqulova Shabnam esa nozik milliy raqslari bilan 1-o'rinni qo'lga kiritgandi. Shuningdek, "Muhiddin Qori Yoqubov" Respublika tanlovining viloyat bosqichidagi muvaffaqiyatdan so'ng Gulfayz respublikada 2-o'rinni olishga ham erishadi. Undan kasb borasida orzularini so'raganimizda "Dutor" mutaxassisligi yo'nalishida O'zbekiston konservatoriya-sida o'qimoqchi ekanligini kamtarona yuz ifodalari bilan bildirdi. Ushbu ko'tarinki xabarlarini qoralab,

maqolani yakunlay deganimda maktabimizning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Gulnora opa Asadova sim qoqib yana bir yangilikdan meni boxabar etadilar. Xususan, umumta'lim muassasalaridagi informatika fanidan 5-6 sinf o'quvchilari o'rtasida "Skratchda eng yaxshi loyiha ishi" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida maktabimiz o'quvchisi Davlatbaev Behruz (ustozi Kamolova Shahzoda) yuqori o'rinni olganligi ma'lum bo'ldi. San'at, madaniyat mavzusidagi maqolaga Fan yo'nalishidagi ushbu xabarni ilova etishimiz bir debocha, yana bu mavzuga qaytishimizni eslatib tursin dedik. Yoshlarimiz chindan zamona taqdim etayotgan imkoniyatlardan ilhomlanib ulg'ayish va yaratish ustida tinim bilishmaydi. Nima ham derdik, kelajak ular qo'lida omadlarini bersin!

Jamshid BERDIYEV,
8-IATCHO'ITM Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi.

MILLIY
KIYIM —
MILLAT KO'RKI

Odamzot yaratilganidan boshlab, tabiat fasllarining almashinuviga qarab o'z tanasini asrash uchun kiyimga ehtiyoj sezgan. Dastlab hayvonlar terisi va yungidan foydalangan. So'ngra esa ongi va dunyoqarashi rivojlana borib, paxta, ipak tolalaridan matolar yaratib, kiyim-kechaklar tikilgan. Insoniyat shu bilan chegaralanib qolmasdan ularga yanada joziba berish maqsadida rang berish va har xil bezaklar solish sirlarini kashf qilgan. Matolarga rang berishda turli xil o'simliklar, jumladan anor, piyoz, yong'och, po'stlog'idan tabiiy uslubda foydalangan. Bezaklar berishda esa o'simliksimon hamda geometrik naqshlardan yoki hayvonlar va qushlar tasvirini tushirish an'ana tusiga aylangan.



O'rta Osiyo xalqlarining kiyim-kechaklari ko'p asrlar tarixga ega bo'lib, har bir elat va etnik guruhlarining o'ziga xos xususiyatli bosh-oyoq kiyimlari mavjudligi, ularning tarixiy taqdiri, madaniyati uzoq davr o'zaro yaqin bo'lganligidan dalolat beradi.

Zarafshon vohasi kiyimlarining tarkibi va tikilishi an'analariga alohida to'xtalib o'tish joizdir. Ustki kiyimlar esa shoyi, adras, hisori, beqasam, baxmal va boshqa kosibiy matolardan tayyorlangan. Ayollar va bolalar liboslari shaklan ko'rinishi jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib, asosan, iqlim sharoitlariga moslashtirib, keng va to'g'ri tikilgan. Bunday liboslar oddiy usulda, ba'zan qaychisiz va andazasiz, yaxlit matodan yirtib tikilgan Ayollar ko'ylagi qadimda deyarli bir xil bichimda bo'lib, ayrimlari yoqali va yoqasiz qilingan. Matoni ikkiga buklab yelka tomonga ko'ndalangiga ikki yeng bilan bir parcha to'rtburchak xeshtak (qo'ltig'iga) solingan. Ko'ylakning yoqa qismiga mashinkada qora va ko'k ip bilan ilonizi qilib shakl berib tikilgan. Ayollar ko'ylagining yoqasi vertikal kesilgan, ayrimlarning butun bo'yiga gulli jiyak (tasma), ya'ni Zarafshon voha tomonlarda kiyimlarga tilla ipda to'qilgan jiyak tikilgan. Bichilishi bir xil bo'lgan bilan rangli matodan tikilgan ko'ylaklarning yoqa, yeng hamda etak qismlariga kashta tikib bezak birilgan. Iqlim sharoitlariga moslashtirib, keng va to'g'ri bichilgan. Ko'ylaklar yozgi va qishki turlarga ajratilgan. Qishki kiyimlarning aksariyati paxtali chokli tikilgan. Yozgi kiyimlar esa yengil astarli, keng yoqali tikilib atrofi jiyak bilan hoshiyalangan. Eng qadimiy liboslar asosan mahalliy kosibiy matolardan tikilgan.

Bugungi kunga kelib bunday milliy kiyim namunalarini ko'proq qishloq joylarda ayollar sarposida hamda muzeylarda ko'rishimiz mumkin. Viloyat muzeyining etnagrafuriya bo'limiga kirgan kishi hamshaharlarimizning qadimda qanday liboslarni kiyganliklari, qanday ko'rinishga ega bo'lganliklari to'g'risida aniq tasavvur hosil qiladi.

H. TURSUNOVA,
Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi bo'lim boshlig'i.

Tadbirkorlikka sa'y-harakat ko'rsatish taqdiru qismatlarda g'oliblikka olib kelish demakdir.

Mahmud Zamaxshariy

TABIAT VA INSON BAYRAMI

Xalqimiz tarixi, boy va ezgu qadriyatlarini o'zida yaqqol mujassam etgan, ona tabiat va odamlar ruhiyatida yuz beradigan yasharish, yangilanish va yuksalishlarni asrlar davomida to'la namoyon qilib kelayotgan Navro'zi olam eng ardoqli milliy bayramlarimizdan biri. Ushbu qadimiy bayramning ruhi va falsafasiga jo bo'lgan borliqni asrab-avaylash, u bilan uyg'un yashash, mehr-oqibat, xayr-u saxovat, bunyodkorlik, bag'rikenglik, do'stlik va hamjihatlik g'oyalari yanada muhim ahamiyat kasb etib borayotganini alohida ta'kidlash lozim.

"Navro'z" umumxalq bayrami munosabati bilan shahrimizdagi "Yangiariq" mahallasida O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondi Navoiy viloyat bo'limi, Navoiy shahar bo'linmasi va "Yangiariq" MFY hamkorligida "Assalom Navro'z — yangilanish, mehr-oqibat va qadr-qimmat ayyomi" shiori ostida Navro'z sayili o'tkazildi. Tadbirida so'zga chiqqan "Mahalla" xayriya jamoat fondi Navoiy viloyat bo'limi boshqaruvi raisi F.Soliyev barchani ko'hna va navqiron Navro'z bayrami bilan muborakbod etdi.

Navoiy shahar Madaniyat bo'limi san'atkorlari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar, raqslar hamohangligidagi folklor namunalari, laparlar davraga qaynoq mehr, quvonch zavqini olib kirdi. Milliy taomlar ko'rgazmasi ham o'tkazildi. Milliy taom osh damlandi va bahoriy taom sumalak tayyorlandi. Milliy kurash, shaxmat-shashka va stol tennisi bo'yicha mahalla yoshlari-yu keksalari o'rtasida o'tkazilgan musobaqalarda 50 dan ortiq sportchilar ishtirok etdi.



Musobaqalarda faol ishtirok etganlarga "Mahalla" fondi viloyat bo'limi tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi. Ushbu shodiyonani tashkillashtirishda Navoiy shahar "Yangiariq" MFY raisi Said Mavlonov katta hissa qo'shdi.

Rustam G'AFFOROV,
"Mahalla" xayriya jamoat fondi Navoiy shahar bo'linmasi raisi.

BAHORNING TONGIDEK
TINIQ QALBINGIZ...

Tabiatning ajib manzarasiga termulgancha shamolda shitirayotgan barglar ohangiga jo'r bo'lib sayragan qushlarning mayin navosiga quloq tutaman. Shu lahzada xayolimni atrofining go'zal tasviri o'ziga rom etdi. Purviqor tog'lar o'zining qorli qalpog'ini yechishga shaylangandek go'yo. Shudring tomchilaridan yaltiroq libos kiyib olgan gullar uni quyoshga ko'z-ko'z qilganday ko'kka bo'y cho'zishmoqda. Bu qadar go'zal manzaraning takrorlanmas jilosidan mast bo'lgancha qulog'im ostida jarang sochayotgan sasga jimgina quloq tutaman:

*Salqin saharlarda, bodom
gulida,
Binafsha labida, yerlarda
bahor.*

Ha, axir bu barchaning yuragiga bahoriy harorat ulashuvchi "Bahor keldi seni so'roqlab..." she'ridan olingan betakror misralar. Uni o'qiganimda ko'z ol-dimda Zulfiyaxonim siymosi namoyon bo'laveradi. Ayni paytda inju ko'nglim shoira ijodi sari talpinmoqda. Zulfiyaning ijod chashmasidan suv ichmoq ilinjida o'y-xayollarimni chetga surib, kitob javonim sari yuzlanaman. Javonimda saf tizgan sara nodirliklar qatoridan shoiraning "Hayot varaqlari" to'plamini qo'limga olaman. Mutolaaga oshno bu qalb istagidan kitobdagi she'rlar olamiga g'arq bo'laman. She'riy to'plamni varaqlar ekanman, dilimda shu yurtga bo'lgan daxldorlik tuyg'usi mavj urayotganini anglayman.

Otash kabi yurakka harorat bag'ishlovchi quyidagi satrlar hech bir kitobxonni befarq qoldirmaydi:

*Bir kaft bog' mehnat-u
hosilga vatan,
O'zga ko'rk, o'zga rang har
bir daraxtda.*

"Bog'lar qiyg'os gulda" deya atalmish she'rdan o'rin olgan farahbaxsh misralarda shoira shunchaki tabiat chizgilarini emas, balki Vatanining tarovatini madh etadi. Zulfiya tabiat tasviri ila yurtiga bo'lgan mehr-muhabbatini qalamga olgan bo'lsa, ajab emas. Ha, bu jannatmonand diyor kimni ham qalam tebratishga chorlamaydi?! Zulfiyaxonim she'rlari hayotbaxsh bir ohangda jaranglashini anglaymiz va qalban his etamiz. Boisi shuki, uning ijodi xalq bilan dildosh va sirdosh, samimiy, sodda satrlar-la yaratilgan.

Mutolaa zavqidan chekinib, bir zum olam va odam haqida o'yga tolaman. Olloh buyuk qudrati-la olamni yaratib, yana ham munavvar bo'lsin uchun ayol zotini yaratmish. Xo'sh, nega unda ayolga og'ir va sinovli kunlarni yo'liqtiradi? Shunisi achinarlik, bu mushkulot ko'chalarida yurmoqlik Zulfiyaga ham "nasib qildi". Yigirma to'qqiz yoshida umr yo'ldoshi Hamid Olimjondan ayrilganida qanchalik ruhiy iztiroblarga duchor bo'lganini bir tasavvur qiling-a?! Ammo sabrdan libos kiygan shoira o'zini dadil tutib, qog'oz ila do'st tutinib, dilidagilarni unga to'kib-sochadi:

*Mana, bir umrni yashadim
sensiz,
Qaytmas shodliklarning
qaytishin kutib.*

Ha, shoira bu parchada "qaytmas shodlik" bo'lmish yoriga murojaat qilayotir. Necha yillar o'tsa hamki, bir dam qalbini jufti haloliga bo'lgan sadoqat tark etmaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, u hanuzgacha vafo kuychisi bo'lib kelmoqda. "Hayot varaqlari"ni ko'zdan kechirar ekanman, men ham Zulfiyadek tengsiz qalam sohibasining avlodi ekanligimdan faxrlanaman. Shoira ijodidan joy olgan durdona asarlar o'sib kelayotgan yosh avlod uchun ma'naviyat chashmasi, uning har tomchisi dillarda ezgulik niholining unishiga ko'maklashadi. Ana shu niholning ilk kurtaklari yuragimda nish urib, oq qog'ozga yo'g'rildi:

*Bahorning tongidek tiniq
qalbingiz,
Bunchalar buyuksiz,
bunchalar suyuq.
Farzandlaringiz va xalqingiz
uchun*

*Hamisha bo'lgansiz
jonsarak, kuyuk.
Sadoqatingizmi yoki*

*mehringiz
Qay birin she'rimga etsam
qofiya?*

*Men ham o'zbekning bir
baxtli qiziman,
Doim izingizdan borgum,
Zulfiya!*

Iroda BAHRONOVA,
NavDPI O'zbek tili va
adabiyoti fakulteti
1-bosqich talabasi.

ILG'OR G'OYALAR
PARVOZI UCHUN

Qahhorov Azizjonning aytishicha, uning yuragida san'atga bo'lgan ilk qiziqishni otasi Hamroqul Qahhorov uyg'otgan va doimo rag'batlantirib kelgan. 1995-yilda tumandagi 27-umumta'lim maktabiga qadam qo'ygan bolakay muallimlar ko'magida qo'llariga qalam ushlab xat-savod chiqardi-yu, kitob o'qigan sayin, sahifalardagi rang-barang suratlardan o'zgacha zavqlana boshladi. Ha, jajji o'g'lonning yuragini o'zi sezmagani holatda "san'at ilhomi" zabt etayotgan edi. Farzandining istedodini sezgan jonkuyar ota Azizjonni 7-sinfigida Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis San'at litseyiga yetaklab bordi. Zotan, otaning qalbi adashmagan ekan. Azizjon litseyda Abdurahmon Nurqobilov hamda Ne'mat Hakimov kabi ustozlaridan tasviriy san'at sirlarini qunt ila o'rgana boshladi. Mana, tinimsiz mehnat va izlanishlar, sabr-toqatga yo'g'rilgan oy-u yillar o'z muvaffaqiyatlar eshigini ocha boshladi. Yosh mo'yqalam sohibi 2003-yilda "Biz — giyohvandlikka qarshimiz!" shiori ostida bo'lib o'tgan rasmlar ko'rik-tanlovi respublika bosqichida 1-o'rinni egalladi. Bunday rag'bat va tuhfa qahramonimizning hayotida tub burilish yasadi. Endi uning yuragiga kirgan "san'at ilhomi" kattakon qushga aylanib, parvoz qilishga shaylandi. 2004-yili U Hindistonning Dehli shahrida o'tkazilgan "Shankar xalqaro bolalar ko'rik-tanlovi"da ishtirok etishga qanot yoza boshladi. O'zbekistonning milliy qadriyat-lari, urf-odat va an'analarini mujassam ettirgan "Qovun sayli" rasmini chizdi. Bu tasviri unga aynan faxrli 2-o'rinni, kumush medalni, qolaversa, 15 yoshida muddatidan oldin imtiyozli ravishda tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha oliygoh talabasi bo'lish sertifikatini in'om etdi. 2006-yil Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn Institutida tahsil olish baxtiga muyassar bo'lgan Azizjon o'ziga berilgan har bir daqiqadan unumli foydalandi. Shu bois u oliygohda professor, akademik, dotsent o'qituvchilar: F.Islomov, Z.Dosmetova, S.Saidova, o'zbek xalq rassomlari: B.Jalolov, J.Umarbekovdan mahorat saboqlarini o'zlashtirishga astoydil bel bog'ladi. Darvoqe, bu intilishlar uning yosh rassom o'laroq shakllanishiga yordam berdi. 2017-yil dastlabki mehnat faoliyatini o'zi o'qigan G'ijduvon tumanidagi 27-maktabda O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi boshlang'ich tashkilot yoshlar yetakchisi bo'lib boshladi.

Azizjon Hamroqulovichning fidoyiligi, tashabbuskorligi maktabdagi faoliyatida ham bir zum tark etmadi. Qator ko'rik-tanlov, festival va musobaqalarda o'zi hamda shogirdlari faol qatnashib, e'tirofga loyiq topildi. Ayniqsa, 2021-yili "O'zbekiston uchun 100 G'oya" loyihalar va tashabbuslar ko'rik-tanlovining barcha bosqichida madaniyat va san'at, turizmni rivojlantirish sohasidagi "Buxoro va Samarqand koshinkorlik maktabini qayta tiklash va chidamkorligini uzoq muddatga kafolatlash" g'oyasi bilan faol ishtirok etgan hikoyamiz qahramoni o'zining kreativ fikrlarini yana bir karra namoyon etdi. Natijada IT park direktori F.Ibragimov tomonidan 3 oylik IT kurslaridan bepul foydalanish sertifikati, O'zbekiston Yoshlar Ishlari Agentligi direktori A.Sa'dullayev tomonidan maxsus diplom va 3.000.000 so'm pul mukofoti sertifikati bilan taqdirlandi. Qisqa fursatlar ichida mahoratli ustozning tavsiyalariga amal qilgan iqtidorli o'quvchilar ham omad qucha boshladi. 2020-2021-yillarda shogirdlari A.To'raqulov "Yilning eng yaxshi dasturchisi" ko'rik-tanlovining, O.Latipov esa "Kamalak yulduzlari" bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichi g'olibligiga sazovor bo'lishdi. 2022-yildan Yoshlar ishlari agentligi G'ijduvon tumani tomonidan "Mirakon" MFYga Yoshlar yetakchisi lavozimiga qabul qilindi.

Ha, "Orzuga ayb yo'q". Azizjon Makedoniyada bo'lib o'tadigan "54th World Gallery of Cartoons-Skopje-2022" xalqaro rasmlar ko'rik-tanlovida qatnashib, oliy sovrinni qo'lga kiritishni niyat qilgan. Izlanuvchanligi bilan yosh avlod qalbiga ezgulikni ko'chirayotgan Azizjonga doimo elda qadri aziz bo'lishini tilab qolamiz!

Umida RAHIMOVA

O'zing meni shoir
yaratding

Bahor va ayol, sevgi va sadoqat, so'z, xotira va adabiyot naqadar go'zal tushunchalar. Ana shu uyg'unlik beixtiyor bizning ko'z un-gimizda Zulfiyaxonim qiyofasida namoyon bo'ladi. Zulfiyaxonim ona yurtning tarovatida ilhom olgan tengsiz siymo, balki uning betakror ulug'vorlik baxsh etgan ilhom malagi.

"Hamma yerda va hamisha ayol kishining eng oliyjanob fazilati kamtarliknidir", — degan edi donishmandlarimiz:

Shoira she'rlarida samimiylik, sodda, badiiy mukammallik yaqqol ko'rinib turadi Zulfiya Isroilova buyuklik, ezgulik go'zallik timsoli: Yashab o'tgan umri davomida she'riyat ko'zgusi sayqal bera olgan insonlardan biri bu shaksiz, Zulfiya Isroilova bir lahza ham ishonishdan, ijod qilishdan to'xtagan emas.

Mustaqillik yillarida Zulfiya nomidagi davlat mukofotining ta'sis etilishi shoira shaxsiyatiga bo'lgan hurmatining yana bir namunasidir.

Oysanam KENJAYEVA



Ijod bu — sevgi, mashaqqat, quvonch!

Shukrullo



UCH YOSHGACHA O'RGANISH — ASOSIY OMIL

Farzand tug'ilganidan to'ulg'ayguniga qadar uning tarbiyasida nimalarga kechikmasligimiz kerakligi haqida fikr yuritamiz...

Yapon adibi MASARU IBUKA asarining "Uch-gacha ayni vaqti" asari bolaning ayni rivojlanishi, o'rgana olish darajasi 3 yoshgacha ekanligini ko'rsatadi. Bu davrda ona bilan bola yetarlicha shig'ullana olishi kerak. Bola tug'ilgandan 6 oygacha "Namuna davri", 6 oylikdan 2 yoshgacha "erta rivojlanish davri" deb tasavvur qilsak, bola 6 oyligida avvalo onasini tanidi. Demak, bolaning eng yaqin hamkori onasidir. Insonlar boy-badavlat bo'lsa, bolasiga yaxshi sharoit yaratib bersagina yaxshi ta'lim olib biladi degan fikr katta xatodir. Bolaning tarbiyasi va ta'lim olishi pulga bog'liq bo'lmaydi, aksincha, ota-onasining yaxshi, ezgu narsalar bilan qamrab olishi, majoziy ma'noda bolani yorug'lik ichiga tashlashi, atrofidagi muhitni ezgulik nafasi bilan to'ldirishiga bog'liq. Tarixga bir nazar tashlasak: dong'i olamga teng insonlar bolaligidan ota-onasining bag'rida ilm izlash bilan mashg'ul bo'lgan va to'siq duch kelganda ota-onasining mehr-muhabbati bilan shu to'siqlarni yenga olgan.

Boladan nima talab qilsak, avvalo, o'zimiz shu narsani bilishimiz va unga o'rnak bo'lishimiz kerak. Xuddi: bemaza ovqat berib, yaxshi oshpaz bo'lishni talab qilishdek!

Bolalar uch yoshgacha o'zining ona tilisini o'rganib, so'ng bir nechta chet tillarini o'rgana oladi. Ammo bolani charchatmagan holda, musiqiy tanaffuslar orqali til o'rgatish maqsad muvofiq.

"Ona va tarbiyachining bolaga ta'siri shu qadar kattaki, bolaning qiziqish darajasi



qandayligi ularning kichkintoyga munosabatiga bog'liqdir, agar tarbiyachi ishtiyoq bilan musiqa tinglasa bola ham xuddi shunday qiladi. Onalarga bolani qiziqitirish murakkab masaladek tuyuladi. Buning uchun bola bilan birga nimadir qilish kerak. Masalan: televizorda kichkintoylar uchun dastur berilayotgan bo'lsa ham ona bolani yolg'iz tashlab qo'ymasini. U bilan — birga qiziqib tomosha qilsin", deb yoziladi kitobda...

MASARU IBUKANING bu fikrlaridan anglash mumkin, ko'p ota-onalar farzandlarini kitob o'qimasligidan, qiziqmasligidan no'lishadi. So'rasangiz ularning o'zi oxirgi o'qigan kitobini eslay olmaydi. Aslida, bolalar kattalarni kitob o'qiyotganda ko'proq ko'rishi kerak. Bundan tashqari bolaning aynan 3 yoshga to'lguncha o'rganganligi uning butun hayoti, orzu-maqсадlarga asos bo'lishi haqidagi fikrlar shu kitobdan o'rin olgan.

Inobat TO'XTAEVA,
Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi
2-DMTT direktori.

Shaxs ma'naviy kamolotini ta'minlash muammolari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, informatsion davrda globallashuv jarayonlarining tezlashishi, xavf-xatarlar ortib borayotgan bir davrda bu narsa juda muhimdir. Yoshlar turli yot g'oyalar ta'siridan asrashda ular ongiga yoshligidanoq kuchli ma'naviy bilimlarini singdirish orqali erishishi mumkin.

KITOBXONLIK KICHIK YOSHDAN BOSHLANSA

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari oldiga bolalarga ilk boshlang'ich yaxshi-yomon tushunchalarni shakllantirish vazifasi qo'yilgan. Bolani qo'rqitib yo aldab, unga mashg'ulot o'tib bo'lmaydi. O'sib kelayotgan bugun juda aqlli va zukkodirlar ularni oddiy dars o'tish usuli bilan jalb etish mushkul.

ijodini turli sahna ko'rinishlari, videoroliklar orqali o'tish bolalar tafakkurida buyuk ajdodlarini tanish va ulardan o'rnak olish xususiyatlarini shakllantiradi.

Radio, televideniya, internet rivojlangan har qanday ma'lumotni ular yordamida osongina bilib olish mumkin. Biroq inson ma'naviy dunyosini kitob orqaligina boyitish

bor haqiqat.

Shu boisdan ham kitob mutolaasi va kitobxonlikka ilk qadam maktabgacha ta'lim dargohidanoq mukammal yo'lga qo'yishni taqozo etadi.



Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda bolalarga mashg'ulotlar turli innovatsion usullarda o'tish, har bir darsni o'yinlar asosida kompyuter qurilmasidan foydalangan holda darslar tashkil etish o'z samarasini beradi. Bu esa, albatta, pedagogdan jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi.

Tarbiyachi nazariy asoslar bilan chetlanib qolmasligi kerak. Bu o'quvchini zeriktiradi, chalg'itishga olib keladi. Nazariyani amaliyot, kundalik voqealar bilan bog'lash zarur. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Abdulkoliq G'ijduvoni, Mahmud az-Zamaxshariy kabi shaxslar hayoti va

Tashkil etilayotgan ochiq dars, bayram mashg'ulotlarida kichik ertak tahlili va sahna ko'rinishlari qo'yilishi maqsadga muvofiq. Ertaklar bolalarning so'z rang-barangligi, muomala madaniyati, axloqiy fikrlash, insonlar bilan munosabat o'rnatishda ahamiyati beqiyos. Uning o'rnini boshqa narsalar evaziga qoplab bo'lmaydi.

O'quv tarbiya jarayonida, ochiq darslarda ota-onalar vaqt ajratib ishtirok etsa maqsadimizga erishish yanada samaraliroq bo'lar edi.

Manzura ABDULLAEVA,
Uchquduq tumani 14-MTT
tarbiyachisi.

SHARTNOMAVIY MUNOSABATLAR

Shartnoma munosabatlari tadbirkorlik faoliyatining asosini tashkil qilib, iqtisodiy sohada islohotlarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutgan shartnoma munosabatlarini takomillashtirishga doir bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ular shartnoma madaniyatini yuqori darajaga ko'tarishga xizmat qiladi. 2021-yilning 14-sentabridagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Preziden Farmonida shartnomaviy munosabatlardagi ko'plab muammo va kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan tartiblar belgilab berildi.

Farmonning qabul qilinishidan ko'zlangan maqsad fuqarolik-huquqiy munosabatlarni yanada takomillashtirish, ayrim shartnomalarni tuzishda o'rnatilgan sun'iy cheklavlarni olib tashlash, shartnomaviy munosabatlarda axborot tizimlaridan foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Mazkur farmon bilan 2021-yil 1-dekabr-dan boshlab tijorat banklariga yetkazib berilgan mahsulot (bajarilgan ishlar,

ko'rsatilgan xizmatlar) uchun to'lovlarni uchinchi shaxslar hisobidan qabul qilishga qo'yilgan taqiq; davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning mahsulotlarni yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish) to'g'risida tuziladigan shartnomalarda majburiy ravishda oldindan to'lovni belgilashga doir talab; qishloq xo'jaligi va chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchilari va tayyorlov tashkilotlari o'rtasida tuziladigan shartnomalarda majburiy ravishda avansni belgilashga doir talablar bekor qilindi.

Shuningdek, 2022-yil 1-yanvardan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda mol-mulkni realizatsiya qilish bo'yicha elektron onlayn auksionda sotuvga qo'yilgan mol-mulk uni sotishdan tushgan pul mablag'lari hisobidan auksion g'olibiga qarzlarsiz va taqiqlardan yechilgan holda topshiriladigan bo'ldi. Bunda mol-mulkni sotishdan tushgan pul mablag'lari yetarli bo'lma-



ganda qarzdorlikni to'lash majburiyati uning sobiq egasi — qarzdor zimmasida qoladi.

Tadbirkorlik subyektlari elektron auksion g'olibi deb topilganidan so'ng ba'zi hollarda duch keladigan mol-mulk bo'yicha soliq, kommunal to'lovlar va taqiqlar endilikda Farmonda belgilangan tartib bilan bartaraf etilib, elektron auksion g'oliblariga mulk barcha qarzlarsiz va taqiqlarsiz topshiriladigan bo'ldi. Farmonda nazarda tutilgan alohida hollarda esa auksion g'olibi mulkni qabul qilib olmasligi mumkin va bunda zakalat pullari qaytarib beriladi. Farmonning yana bir muhim tomoniga to'xtaladigan bo'lsak, fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar namunalari ishlab chiqish bo'yicha

"Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Unga asosan aholi va tadbirkorlik subyektlariga qulaylik yaratish maqsadida mukammal shartnoma namunalari "yurxizmat.uz" maxsus axborot portali orqali joylashtirib boriladi va ushbu shartnoma namunalari qonunchilikka kiritiladigan o'zgartirishlardan kelib chiqib nazorat holatida yuritiladi.

So'nggi so'z o'rinda aytadigan bo'lsak, mazkur farmon bilan tadbirkorlik subyektlariga qulay bo'lgan shart-sharoit yaratish maqsadida shartnomaviy munosabatlarga oid mavjud muammolarni bartaraf etuvchi tartib-taomillar o'rnatildi. Bu esa o'z o'rinda tadbirkorlik subyektlaridan shartnomaviy munosabatlarga kirishishda qonunchilikka amal qilish, shartnoma tuzishda belgilangan huquq va majburiyatlarga rioya qilishni talab etadi. Negaki, qoidalarga amal qilish shartnomaviy munosabatlarni yanada takomillashtirib, yurtimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xurshid TURSUNOV,
Uchquduq tumani iqtisodiy
sudi raisi.



O'ZIGA ISHONCH

Aziz do'stlarim, men hozir sizlarga so'zlab bermochi bo'lgan hikoyam uyalchang qizaloq Robiya haqida. Robiya juda qiziquvchan va intiluvchan, shu bilan birga juda tortinchoq. Maktabda dugonalariga qo'shilmay bir chetda turadi, u sinfdagi eng a'lochi bolalardan biri. Biroq u hamma darslarini qilsa ham uyalchangligi unga pand beradi. Dugonalar doim qo'l ko'tarib "besh" baholar oladi. O'qituvchi bugungi darsda ham bolalarga savol berib, aniq javob ololmagach: "Qani, bolajonlar shu savolga yana kim qo'shimcha javob beradi?" — deya so'rab qoldi. Robiya bilardi. Lekin gapirganida hamma unga qarayotgandek tuyulaverar va qo'l ko'tarishga ikkilanardi. Uning ikkilanishi ortgan sari o'zi ham qiynalardi. Darsdan qaytayotib, uyiga yaqinlashgan sari o'z-o'zidan xafa bo'ladi. "Nega men boshqalardak burro-burro gapira olmayman, nimadan qo'rqaman o'zi?" — deya rosa xunobi chiqadi.

U bugun buvisidan maslahat so'raydi. Mana cho-

raklik baholar chiqishiga yana bir oy qoldi. Axir, birinchi sinfga borayotganiga ham 3 oy bo'libdi-ya! U eshikdan kirib kelishi bilan buvisi birinchi bo'lib kayfiyatini so'raydi.

— Mening shirintoyimni kim xafa qildiykan-a?

— Hech kim.

— Nega unda ko'zchalari ma'yus?

— Buvijon, nega men boshqalarga xuddi sizga gapirgandek gapir olmayman. Meniyam ko'p gapirib, ko'p baho olgim keladi.

— Shunaqa deng. Hmmm, avval choy ichamiz, keyin ikkalamiz suhbatlashamiz, xo'p?

Buvisi choy ichib bo'lishgach, Robiyaga dedi:

Kel, ikkalamiz o'yin o'ynaymiz. Men o'qituvchi, sen o'quvchi bo'lasan.

— Xo'sh, bir yilda nechta kun bor?

— 365 ta.

— Bir oyda-chi?

— 30-31 kun bor.

— To'g'ri, unda bir haftada nechta kun 1 kunda nechta soat bor?

— Bir haftada 7 kun, 1 kunda 24 soat.

— Ana, ko'rdingmi, sen hammasini bilasan!

— Unda, nega ustozimga aytib berolmayman, — dedi Robiya xafa bo'lib.

— Bilasanmi, oppog'im. Sen gapirayotganingda faqat ustozim menga qarab turibdi, deb o'ylaysan va hayajonlanasan. Aslida, ustozingni ko'zlariga boqib, shu mehrli ko'zlar ortida buvijonim, oyijonim menga boqib turibdi, deb o'ylasang, yanayam dadil bo'lasan. Odam, avvalo, o'ziga ishonishi kerak. Mana, men senga ishonishimni his qilganing, o'rtamizda mehr bo'lgani uchun oldimda baralla gapiryapsan.

— Ha, men sizni tushundim, buvijon. Bugundan boshlab ustozimga xuddi oyimga, sizga suyangandek suyanaman, — deya buvisini achomladi Robiya quvonib.

Sadoqat HUSANOVA,

Navoiy shahar 7-maktab o'quvchisi.

OXIRGI YAPROQCHA

Hikoya

Yoz kunlarining birida daraxt novdasini yorib chiqqan yaproqcha atrofga begonasirab qarab qo'ydi. Burishib turgan tomirchalarini yoygancha esnab olgach ona quyoshga to'q zangori yuzini tutdi. Yonidagi yirik-yirik yaproqlar ham, biri ayni yoz chillasida go'zalligini ko'rganidan havaslanib qarasa, boshqasi uchun esa bemavrid tug'ilgan bu "jinqar-cha" tabiatning xato o'yini bo'lib tuyulardi.

— Buncha kech kurtak yozding, qish o'tgani qachonlari edi, — jahli chiqdi shapaloq yaproqning.

— Qo'ying, indamang. Bu bechorada nima gunoh, qarang qanchalar chiroyli, yam-yashil, — dedi yonidagi yaproqoy, yangi mehmonni quyoshdan soya qilib. — Xuddi yoshligimni eslatib yuboradi-ya.

Yoz o'tib kuz shamoli turdi, atrofni chang to'zon tutganda yaproqlar ham birin-ketin to'kila boshladi. Dastlab bunga unchalik e'tibor bermagan yaproqcha daraxt barglari kamayib boravergach xavotirga tusha boshladi. Yonidagi do'stlari ham kundan kunga yo'qolib borar, har gal shamol turganda bir nechta yaproq daraxtni tark etib yer bag'riga ravona bo'lardi. Bundan xavotiri oshgan yaproqcha tomirchalarini bilan daraxt novdasini mahkam quchib oldi. Qo'laversa, kech ochilgani uchun ildizi ham baquvvat, unchamuncha shamol uni mahv etolmasdi. Biroq kunlar o'tgani sayin o'zida qandaydir tushunib bo'lmas hislarni tuya boshladi.

— Zerikding-a, — dedi, yaproqchani kuzatib turgan daraxt.

— Bilmayman. Men...men tushunmayapman nima bo'layotganini. Qolganlar qayoqqa

ketdi? Qancha chaqirdim, bari jim, — xafa bo'lib boshini qayirdi yaproqcha.

— Ular o'z umrini yashab mangu uyquga ketishdi, — javob berdi keksayib qolgan daraxt. — Sen ham qaysarlik qilmay do'stlaring yoniga bor,

kinib esnab oldi keksa daraxt. — Unda ko'p yomg'ir yog'adi, iliq quyosh taftidan yaproqlar tez o'sib katta bo'ladi.

— Uni qayerdan topsa bo'ladi?

— Qishdan keyin. Shuning uchun ham men to'yib uxlab olishim kerak, bo'l-masa bahorni kutib ololmayman, — yana bir esnab oldi keksa daraxt.

— Men-chi, men nima qilishim kerak? Men ham bahorni ko'rgim kelyapti.

— Sen... Bo'ldi qil, shoximni achitib tashlading. Bugun kech bo'ldi, yaxshisi ertaga gaplashamiz.

Biroq yaproqcha hech uxlay olmadi. Kechasi turgan qattiq shamol ham uni hech qorqitmas,

fikr-u xayoli bahorda bo'lgani uchunmi daraxt novdasini mahkam quchish kerakligini ham unutib qo'ydi. Butun vujudi bilan iliq quyosh qanaqa bo'lishini tasavvur qilishga urinar (axir u tug'ilganda faqat issiq quyoshni ko'rgandi-da), xayolida ko'plab o'zidek yaproqchalarning quyoshga bo'y cho'zayotganini, yomg'irda cho'milishganini, unga mitticha deb emas, tengdoshidek munosabat ko'rsatlayotganini o'ylagan sari zavqi oshib borardi, balki boshqa yaproqlaridan kattaroq ham bo'lar. Biroq, nima qilish kerak, kundan kunga ayoq yaqinlashib kelayotgan bu paytda bahorni qayerdan topsa bo'ladi?

Erta tongda uyg'ongan keksa daraxt yaproqchasining bandidan uzilib ketganinini ko'rdi. Atrofni qaradi. Yo'q. Qayerlarga uchib ketdi ekan?

Balki bahorini izlab yo'lga chiqqandir...

Ozodaxon O'ROQOVA



shunda men ham bemalol qishki uyquga ketardim. — Lekin, lekin men hali juda kichkinaman-ku, men, men hali katta yaproq bo'lmoqchi edim, quyoshni ham tayinli ko'ra o'lganim yo'q-ku, — yaproqchani ko'zlaridan ikki tomchi shudring to'kilib.

— Qo'y, yig'lama endi, ovutmoqchi bo'ldi keksa daraxt. — Tabiat qonunlari bizning istaklarimizga qarab o'tirmaydi. Sen quyoshni istaysan, ko'p yashashni istaysan. Vaholanki, ayni yoz chillasida seni yaratgan tabiat, bu istaklaringni bilmagan deysanmi? Bilgan. Lekin qani quyosh, qani seni o'stiradigan issiqlik? Agar men ham bir sen uchun uyquga ketmay turaversam, tanamdagi suv muzlaydi-da, sovuq urib, bahorda hamma daraxt gullaganda o'tin bo'lib qolgan bo'laman.

— Bahor? Nima u — ajablanib so'radi yaproqcha.

— Bahormi, hamma yaproqlar kurtak yozadigan fasl, — sil-

YURTIMIZGA TAKROR BAHOR QAYTMOQDA

Yurtimizga takror bahor qaytmoqda, Yuraklarda tushar Zulfiya yodi. Hofizlar ham bahor kuyin aytmoqda, Boshlanadi o'rik gulin bayoti.

Har ochilgan kurtak uni qumsaydi, Qani endi, qaytsa edi Zulfiya. Chor tarafga gul ifori to'lsaydi, O'sha she'rin aytsa edi Zulfiya!

Berkitardi qalbdagi oh-zorini, Nolimadi aslo-buyuk Haq zotga, She'r orqali chalib baxtin torini, Sig'dirolmay o'trmishini hayhotga, To'g'ri, baxti cho'zilmadi yiroqqa, Lek yashardi eslab baxtli kunlarni, Yurak yig'lab, bo'zlar qolib qiynoqqa, O'tkazgandi og'ir, dardli tunlarni.

Vafosidan o'rnak olsin ayollar, Sadoqatda timsol bo'ldi shoir. Kamdir unga bitsak bisyor ash'orlar, Bir onaning bardoshiga qoyil-a!

Yurtimizga takror bahor qaytmoqda.....

Sug'diyona TOHIROVA,
Xatirchi tumani 34-maktab o'quvchisi.

TABIAT

Biz uchun mo'jiza etilgan in'om, Tabiat tufayli hayotdir bari. Qadimdan ezgulik qoldirgan-ku nom, Hozir-chi oqibat chekingan nari.

Avval go'zal bo'lib, ochilgan gullar, Bugun chiroyini berib qo'yyapti. Zulmdan qo'rqmagan, yengilmas qo'llar, Nega jaholatga taslim bo'lyapti?

Ayrim qabihlarning zulmi tufayli, Jonzotlar og'riqdan chekmoqda ozor. U ongli mavjudot bo'lmasin mayli, Uning ham biz kabi shirin joni bor.

Go'yo tugamaydi suv ham daryoda, Qadriga yetmaymiz, isrof qilib, xor. Bir biz emasmiz-ku, butun dunyoda, Qancha-qancha inson tomchi suvga zor.

Uyqudan tura olmay qalbi karaxtlar, Ikki oyog'ida arang turibdi. O'sha sen yoqitmas shoxli daraxtlar, Kim uchun zaharlar yutib yuribdi.

Qadring anglamayin yurganlar qancha, Nomingni oq deya oqlolmayapsan. Bu sabr dunyodan, olamdan parcha, Ne qilay joningni saqlolmayapsan.

Seni qancha xo'rlab, tahqirlashsa ham, Bariga guvohman, bariga amin. Mehrim mayli zarra, mayli bo'lsin kam, Sen uchun fidoman, onajon zamin!

Yillar asrlarga sekin aylanib, Yurakka g'amginlik o'tin soladi. Ayovsiz, shiddatli jangga shaylanib, Borliq hali bizdan qasos oladi...

Sardor IBROHIMOV,
Navoiy shahar maktab o'quvchisi.



Navoiy viloyat Ma'naviyat va ma'rifat kengashi,
viloyat Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi

Milliy urf-odatlarimiz, o'lmas qadriyatlarimiz
ko'zgusi bo'lmish umumxalq bayrami

NAVRO'ZI OLAM

bilan barchani samimiy qutlaydi!

Sharqona yangi yil yurtldoshlarimiz olilalariga
tinchlik-xotirjamlik,

baxt-saodat va qut-baraka olib kelsin!
Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin!

NAVRO'Z AYYOMI BARCHAGA MUBORAK BO'LSIN!

BAHOR MUBORAK!

Bahorni sog'ingan dildan aylanay,
Ko'klamdan so'zlovchi tildan aylanay,
Nafosat timsoli — guldari aylanay,
Ehtirom ko'nglimda, so'z-la bog'lanay,
Azizlar, barchaga bahor muborak!

Yilimiz bahorni yetaklab keldi,
Qadam — quvonchidan chechaklar undi,
Huzurlar ulashib, shabboda yeldi,
Tabiat barchaga fayzini berdi,
Azizlar, barchaga bahor muborak!

Bahorni suymagan hech bir dil bo'lmas,
Navbahor — uyg'onish, ezgulik, havas,
Bahoriy qo'shiqdan arimagay ixlos,
Shukrona, tahsinlar tarovatga mos,
Azizlar, barchaga bahor muborak!

Bahorim, qadamdan fayzing arimasin,
Barokat topmagan bir zot qolmasin,
Ekinning ishqida dehqon tolmasin,
Har kim baxtli yashab, murodga yetsin,
Azizlar, barchaga bahor muborak!

Yangi harakatlar — O'zbekistonda,
Yurt uchun kuyinmoq — barcha insonda,
Mazmun-u samarlar ishda, imkonda,
Bahoriy kayfiyat o'tar har onda,
Azizlar, barchaga bahor muborak!

Bobonor NORTOJIYEV,
ijodkor.

HUR VATANIM — O'ZBEKISTON

Hayotimiz nurli bo'ston,
Har go'shamiz bog'-guliston,
Dunyo bo'ylab noming doston,
Hur vatanim — O'zbekiston!

Yashnab turgan bog'im o'zing,
Suyanganim, tog'im o'zing,
Yuragimsan, orim o'zing,
Hur vatanim — O'zbekiston!

Ravnaq topib yashnayvergin,
Olg'a qadam tashlayvergin,
Maqsad ulkan boshlayvergin,
Hur vatanim — O'zbekiston!

Onajonim deymu seni?
Otajonim deymu seni?
Jonajonim o'zing meni,
Hur vatanim — O'zbekiston!

Jannatlarga qiyo etgum,
Sen-la maqsad, murod yetgum.
Tanda jonim, doston bitgum,
Jannat yurtim — O'zbekiston!

Dildora MEZOMOVA,
"Yosh ijodkorlar" to'garagi
a'zosi.

ONAJONIM

Sizsiz mening jannatim,
Yelkamdagi qanotim.
Boshimdagi tojimsiz,
Sizga bor muhabbatim.

Sizning mehringiz sabab,
Yuribman o'ynab, yayrab.
Onam uchun bu jonim
Bersam ham kamdir, yo Rab.

Onajonim — dildoshim,
Baxtliman, bor quyoshim.
Siz borsiz bu hayotda,
Omondur aziz boshim.

**Hamida
SHUKURILLAYEVA,**
Xatirchi tumani
79-maktab o'quvchisi.

BAHORIM

Chiroyin ko'z-ko'z qilib
Keldi go'zal bahorim.
Zar nurlarini sochib
Kuldi ko'kda kuy sozim.

Qaldirg'ochning sayrashi
Dilga oro beradi.
Bahor chiroyin ko'rib
Qalblar zavqqa to'ladi.

Kela qolgin gul bahor
Senga ko'zlar intizor.
Dilnura RAXMATOVA,
Nurota tumanidagi
1-IDUM 4-sinf o'quvchisi.

SALOM, ONA TABIAT

Parvoz qilar kapalak,
Go'zal-u go'yo malak.
Nurafshondir bu falak,
Salom, ona tabiat!

Chalib chigirtka sozin,
Kabutar qo'ymas nozin.
Tinglab bulbul ovozin,
Salom, ona tabiat!

Yam-yashildir dalalar,
Tog'da alvon lolalar.
O'ynab kular bolalar,
Salom, ona tabiat!

Mening ona makonim,
Cho'lda qolmas karvonim.
Asray, buyuk zamonim,
Salom, ona tabiat!

Fotima NIYOZQULOVA,
Navbahor tumanidagi 3-umumta'lim maktabi o'quvchisi.